

## “MEHROBDAN CHAYON” ROMANIDA PRESUPPOZITSIYA IFODASI

*Muhammadqodirova Feruzabonu Otabek qizi*

*Qo`qon DPI O`zbek tili va adabiyoti ta`limi*

*2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada presuppozitsiya hodisasining yuzaga kelishi haqida ma`lumot berilgan. Shu bilan birga, Abdulla Qodiriyning yashirin ifoda vositalaridan biri bo`lgan presuppozitsiya hodisasidan foydalanish mahorati “Merobdan chayon” romani misolida tahlil qilingan va ijodkorning o`ziga xos badiiy jihatlari tadqiq etilgan.

**Kalit so`zlar:** presuppozitsiya, pragmatika, deyktik ifoda, pragmatik aspekt, kontekst, til ekonomiyasi, sema, polisemantik so`z, nutq vaziyati, nutqiy tejamlilik.

Til birliklarining aynan kontekst, kommunikativ muhit, til egalarining lisoniy qobiliyati, til bilimi va ko`nikmalari, nutq obyektiga haqidagi umumiy bilimlari kabi muloqot tamoyillari bilan bog`liq holda tadqiq etish maqsadi pragmatik lingvistikaning mustaqil yo`nalish sifatida ajralib chiqishiga turtki berdi. O`zbek tilida bir so`z orqali murakkab mazmuni ifodalovchi presuppozitsion signallar xilma-xildir. Shu signallar orqali bir so`zning o`zi ifodalagan ma`nosidan tashqari qo`shimcha ravishda yashirin ma`nolarni ham his etish lozim. Bu yashirin ma`nolarni tadqiq etish bilan bevosita presuppozitsiya hodisasi shug`ullanadi.

**Presuppozitsiya** – (lot. prae - oldinda, oldinga va supposition – joylashtirish, qo`yish) til birligining nutqiy vaziyat, matn, til egalarining nutq obyektiga haqidagi umumiy bilimlari bilan bog`liq xususiyatlarini yashirin yo`l bilan namoyish etuvchi lingvistik hodisa bo`lib, muayyan tashqi va ichki omillar ta`sirida yuzaga chiqadi va gapda nutqiy tejamlilikni yuzaga keltiradi. Presuppozitsiya hodisaga, asosan, til hodisasi sifatida qaralib, unga quyidagi belgilarni asos qilib olishimiz mumkin: bevosita ifodalanmaslik va gap qurilishidan anglashilish. Bundan kelib chiqadiki, leksik sathdagi so`z va boshqa birliklardan ifodalanmoqchi bo`lgan ma`nolar ham yaqqol ko`rinmaydi. Balki bu ma`no so`zni sinchkovlik bilan qaralgandagina yuzaga chiqadi. Bu yashirin ma`noni aniqlash presuppozitsiya hodisasining asosiy vazifasidir. Nazariy adabiyotlarda ta`kidlanishicha, presuppozitsiya matnni “semantik jihatdan murakkablashtiradi. Bunday vaqtda ayrim so`z yoki grammatik shakl orqali ifodalangan propozitsiya o`zining eng ixcham shakliga ega bo`ladi. So`zlovchi va tinglovchi uchun uning tushunarli bo`lishida presuppozitsiya yordamga keladi [1:113].

Presuppozitsiya ma`lum matn ifodalayotgan propozitsiyani to`g`ri tushunilishiga imkon beradigan so`zlovchilar o`rtasidagi “bilishning umumiy fondi”, “oldindan bilishning jami – bilishlar” sifatida belgilanadi [2:28]. Presuppozitsiyaning asosiy

belgisi matn orqali bayon qilingan propozitsiyaga – hukmga zid tarzda mazmuniy munosabatning anglashinishidir. Ma`lumki, presuppozitsiya matda yo`qolmaydigan, o`zgarmaydigan hodisa bo`lib, u asosan, gapda aks etgan propozitsiya ustiga quriladi va uni semantik jihatdan to`ldiradi [3:69].

Presuppozitsiya orqali propozitsiyaning ifodalanishi natijasida gap semantik jihatdan murakkablashadi [4:52]. O`zbek tilida ayrim yuklamalar borki, ular gapda presuppozitsiyaga ishora qiladi. Jumladan, presuppozitsiya **ham** yuklamasi yordamida yuzaga keladi [5:28]. Masalan, “Mehrobdan chayon” romanidan olingan quyidagi parchalarni tahlilga tortaylik:

“Kimlarningdir vositasi bilandir mazkur go`zal kanizning ta`rifi Buxoro amiri – amir Nasrulloxonga yetib, u ham ilgari haligi kanizga g`oyibona oshiq bo`lgan edi” [6:12].

Ma`lumki, **ham** yuklamasi kuchaytiruv-ta`kid ma`nosini ifodalovchi yordamchi so`z turkumi bo`lib, ushbu gapimizda “Kanizga amir Nasrulloxondan boshqalar ham g`oyibona oshiq edi, uning oshiqi ko`p edi”, - degan presuppozitsiyaga ishora qilib kelmoqda.

- Tur yotma, Ra`no, go`shtni onangga to`g`rab ber, piyozni art! Anvar akang **ham** kelib qolar, taom asrga tayyor bo`lsin [6:12]! Ushbu parchada ham ajratib ko`rsatilgan so`z presuppozitsiya (yashirin ma`no) ga ishora qilib kelmoqda va “Uyda Anvardan boshqa hamma bor edi”, - degan ma`no mazmuni anglashilmoqda.

**-mi** so`roq yuklamasi yordamida tuzilgan ritorik gaplar vositasida ham presuppozitsiyaga ishora qilinadi. Bunday gaplar shaklan so`roq gap ko`rinishida bo`lsa-da, mazmunan inkorni ifodalaydi.

Masalan, “Biroq, domlarni bunday buzuqliqqa qarshi borishlari mumkin**mi** edi?” [6:67] Ushbu parchada ajratib ko`rsatilgan yuklama orqali “Domlarni bunday buzuqliqqa qarshi borishlari mumkin emas”, - degan presuppozitsiya anglashiladi. Mazkur gapning kesimi shaklan bo`lishsiz ko`rinishda bo`lsa-da, lekin mazmunan bo`lishlilikni ifodalagan.

“Bundan ko`ra qaro yerga kirsam bo`lmas**mi**” [6:189]. Ushbu parchada **-mi** so`roq yuklamasi yordamida “Bundan ko`ra qaro yerga kirsam bo`lardi”, - degan presuppozitsiya anglashilmoqda va gapning ma`no murakkablashuviga sabab bo`lmoqda. Qolaversa, qaro yerga kirmoq frazeologik ifodasidan so`zlovchi shaxsining boshiga tushgan kulfat shu qadarki, hattoki u tiriklar safidan chiqib, ajalidan besh kun burun boqiy dunyoga rixlat qilishga ham tayyor ekanligi, adresant ruxiy holatining zaifligi va, shuningdek, aynan milliy mentalitetimiz, e`tiqodimiz bilan bog`liq “uyat o`limdan qattiq” maqoliga ham hamohang inson or-nomusi, g`ururi, sha`ni kabi axloqiy masalalar ifodasi ham anglashiladi.

**Kim? nima?** so`roq olmoshlari ishtirokidagi ritorik so`roq gaplarda ham presuppozitsiya (yashirin ma`no) mavjud bo`ladi. So`roq olmoshlari yordamida

tuzilgan bunday javob talab qilmas gaplarda so`roq olmoshi nimani anglatasa, u ishora qilgan ma`no alohida ta`kidlanadi va ta`sirchanligi kuchaytiriladi. Masalan, **kim?** so`roq olmoshi ishtirok etgan so`roq gaplarda **hamma** yoki **hech kim** tushunchasi alohida ta`kidlanadi. Masalan, “Darhaqiqat, ozodlikdan mahrum etilgan mazlum qizlarga necha asarlar qoldirib ketgan bir shoirani **kim** bilmasin, ko`pchilikning aytolmagan hasratini kuylarga solib bergan shoirani **kim** unutsin? Oshiqidan ayrilganlar bir ma`shuqa, nomusiga to`qunilgan bir mazlumaning faryodi **kim**larning yuragiga kirib o`tirmasin!”[6:126] Ushbu parchada **kim** so`roq olmoshi yordamida ifodalangan ritorik so`roq gap orqali “Darhaqiqat, ozodlikdan mahrum etilgan mazlum qizlarga necha asarlar qoldirib ketgan bir shoirani **hamma** biladi, ko`pchilikning aytolmagan hasratini kuylarga solib bergan shoirani **hech kim** unutmaydi. Oshiqidan ayrilganlar bir ma`shuqa, nomusiga to`qunilgan bir mazlumaning faryodi **hammaning** yuragiga kirib o`tiradi!”, - degan presuppozitsiya anglatilgan. Bunday ritorik so`roq gapning kesimi shaklan inkorni ifodalasa-da, gap mazmuman tasdiqni ifodalagan.

**Faqat** yuklamasi ham yashirin presuppozitsiyani yuzaga keltiruvchi vosita bo`lib, u o`zi ajratib kelayotgan bo`lakka yaqin bo`lgan tushunchalarni zidlash orqali presuppozitsiyani hosil qiladi. Zidlashning tasdiq yoki inkor harakterda bo`lishi o`zi ishtirok etayotgan gapning predikatiga bog`liq bo`ladi. Agar predikat tasdiq formada bo`lsa, yashirin presuppozitsiya inkor xarakterda bo`ladi [5:52]. Masalan, “**Faqat** bu majlisda uning faryodi ishtirok etsa ham, o`zi ishtirok etmas, behisob faryodlar, fig`onlar, hasratlar bilan charchagan bu qiz, hozir tuproq ostida tinchib uxlar edi” [6:126]. Ushbu gap shaklan tasdiq ko`rinishida bo`lsa-da, lekin mazmunan “Majlisda **faqat** faryodi ishtirok etadi xolos, ammo o`zi ishtirok etmaydi”, - degan presuppozitsiyaga ishora qilgan. Mantiqiy izchillik asosida tahlilga chuqurroq yondashadigan bo`lsak, parchada tasdiq orqali inkor munosabatidagi presuppozitsiyaga ishora qilingan bo`lsa-da, ammo presuppozitsiya anglatgan inkor mazmunidagi jumlada ham aslida tasdiq ma`nosiga ishora mavjud. Bunday badiiy mukammallik ijodkorning so`zdan foydalanishda naqadar sinchkov bo`lganini ifoda etadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Abdulla Qodiriyning sermazmun va betakror ijodiyotini har turli yondashuvlar nuqtayi nazaridan tahlil qilinsa-da, yangi yangi ma`nolar kashf etilaveradi va uning yashirin ma`nodagi so`zlarni qo`llash mahorati naqadar kuchli ekanligi anglatilaveradi. Ma`lum bo`ladiki, presuppozitsiya gapda nutqiy vaziyat bilan bog`liq holda yashirin tarzda reallashuvchi hodisadir. Uning to`g`ri tushunilishida nolisoniy omillar – nutqiy vaziyat, kontekst, so`zlovchi va tinglovchiga oldindan ma`lum bo`lgan umumiy bilimlar hamda nutq egalarining til

ko`nikmalari yordamga keladi. Presuppozitsiya hodisasi tilning pragmatik aspektini namoyon etuvchi hodisa sifatida kontekst, nutq vaziyati, til egalarining nutq obyektiga haqidagi bilimlari tushunchalari bilan zich bog`lanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A. Nurmonov. N. Mahmudov. O`zbek tilining mazmuniy sintaksisi. –Toshkent, 1992, B-113.
2. N. Mahmudov. Presuppozitsiya va gap. –Toshkent, 1986, B-28.
3. Sh. Safarov. Pragmalingvistika. Monografiya. –Toshkent, 2008, B-69.
4. R. Davlatova. Propozitsiya va uning o`zbek tilida ifodalanishi. Filol. fanlari. nomz ...dis.avtoref . – Toshkent, 2009, B-52.
5. U. Rahimov. O`zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi. Filol. fanlari. nomz. ...dissertatsiya. – Samarqand, 1994, B-28.
6. A. Qodiriy. Mehrobdan chayon. – Toshkent, 2014, B: 5-287.